

22-23.04.2024

<https://phoenixpublication.uz/>

**RAQAMLI IQTISODIYOT TAKOMILLASHUVINING BANK
TRANSFORMATSIYA JARAYONLARIGA TA'SIRI**

Usmanova N.Yu.

Buxoro muxandislik- texnologiya instituti, katta o'qituvchi, Buxoro sh.

**ВЛИЯНИЕ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ НА
ПРОЦЕССЫ БАНКОВСКОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ**

Усманова Н.Ю.

*Бухарский инженерно-технологический институт, старший преподаватель, г.
Бухара noza_future@mail.ru*

**IMPACT OF IMPROVEMENTS IN THE DIGITAL ECONOMY ON THE
PROCESSES OF BANKING TRANSFORMATION**

Usmanova N.Yu.

Bukhara Engineering and Technology Institute, senior teacher, Bukhara

Bugungi kunda mamlakatimizd raqamli texnologiyalar iqtisodiyotimizning barcha tarmoqlariga jadal kirib bormoqda. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi bank tizimida turli to'lov xizmatlarini yetkazib beruvchilar o'rtasida raqobat muhitining shakllanishi va kuchayishi, chakana to'lovlar bo'yicha tranzaksion xarajatlarning qisqarib borishi, shuningdek, to'lovlarni amalga oshirishda moliyaviy institutlarning vositachilikni talab etmaydigan innovatsion va jozibador to'lov vositalarining joriy qilinishini taqozo etmoqda. [1]. Bugungi kunda respublikamizda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi natijasida, tijorat banklarining yangi innovatsion elektron xizmatlariga talabi yanada ortgan. Aholi o'rtasida bank binosiga bormasdan, birgina telefon, kompyuter yoki boshqa informatsion texnologiyalar orqali ko'plab amaliyotlarni bajarish imkoniyati ommalashib bormoqda. Shuningdek, tanlangan bankning mobil ilovasi yoki rasmiy saytiga kirib, kerakli ma'lumotni olish, turli to'lovlarni amalga oshirish, buyurtma berish va shikoyat yoki e'tirozlar yo'llash mumkin. [2].

Hozirda elektron bazaga jamlangan axborotlarning raqamlashtirilganligi natijasida avvallari ma'lum muddat kutishga to'g'ri keladigan bank amaliyotlarini bir necha soniyada o'tkazish imkonini beruvchi dasturlar, qurilmalar yaratilgan. Hayotimizga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining mana shunday shiddat bilan kirib kelishi jaxon xo'jalik aloqalarining globallashtirishini, tovar va xizmatlar, shu jumladan, moliyaviy xizmatlarni yetkazib beruvchilar bozorida raqobatni keskin kuchaytirib yubordi. [3].

Bank tizimida zamon talablariga mos holda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy qilish va shu orqali ko'plab bank xizmatlarini avtomatlashtirish ishlari

22-23.04.2024

<https://phoenixpublication.uz/>

jadallashgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 - 2025 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish Strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-5992-sonli farmonida zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, tijorat banklarining biznes jarayonlarini avtomatlashtirish va masofaviy bank xizmatlari turlarini kengaytirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadida tijorat banklarini korporativ transformatsiya qilish jarayonida zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish sohasida asosiy vazifalar belgilab olingan: masofaviy bank xizmatlari, shu jumladan, kontaktsiz to‘lovlar soni va qamrovini kengaytirish; avtomatlashtirilgan scoring tizimi, raqamli identifikatsiyalash va kredit konveyerlaridan keng foydalanish; bank ma’lumotlari va tizimlarining axborot xavfsizligini kuchaytirish; bank sohasidagi yangi konsepsiya va texnologiyalarni keng joriy etish. Bu vazifalarni amalga oshirishdan ko‘zlangan maqsad respublikamizda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish asnosida aholining moliyaviy va xuquqiy savodxonligini oshirish, mamlakatimizning xalqaro maydondagi integratsiyasini jadallashtirishdan iborat. [4]. Ma’lumki, banklarni raqamlashtirish jarayoni bank va mijoz o‘rtasidagi munosabatlarni raqamli axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida barpo etish hisoblanadi. Bu jarayonda bank mijozlariga moliyaviy xizmatlar qulay, sifatli xamda tezkor ravishda amalga oshirilishi, operatsion xarajatlarni kamayishida muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston bank tizimida so‘nggi yillarda bank xizmatlarining sifati va ko‘lamini oshirish bo‘yicha qator ishlar amalga oshirildi. Lekin jahonda bo‘layotgan o‘zgarishlar, globallashtirish jarayoni, raqobatbardoshlikni haddan ziyod rivojlanishi, tijorat banklarining transformatsiya jarayonini yanada faollashtirish, mijozlarga ko‘rsatilayotgan bank xizmatlarini yangi bosqichga olib chiqish zaruratini yuzaga keltiradi. [5].

Xorijlik iqtisodchilar T.Ablyazov, V.Asaulning fikricha, raqamli transformatsiya jarayoni mavjud biznes modellarini takomillashtirish, shuningdek, ish samaradorligini oshirish uchun raqamli texnologiyalardan foydalanishni anglatadi. Ushbu jarayon innovatsion texnologiyalarni doimiy ravishda joriy qilishni o‘z ichiga oladi, bu butun iqtisodiyotni to‘liq raqamli o‘zgartirishga olib keladi. Rossiyalik iqtisodchi olim Vadim Arkadevich Kosheev, moliyaviy sektorni rivojlantirish nuqtai nazaridan raqamli transformatsiya yangi ish muhitini shakllantiruvchi biznesni yuritishning amaliy usullarini takomillashtirish sifatida o‘rganiladi deb hisoblaydi. Taniqli o‘zbekistonlik iqtisodchi olim, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputati, iqtisod fanlari doktori, professor. N.X.Jumaev “Raqamli iqtisodiyotda IT yordamida tannarxni kamaytirishga, natijada optimallashtirishga va samaradorlik oshishiga erishiladi. Raqamli iqtisodiyotda zamonaviy ilmiy yondashuvlar va innovatsiyalar muhim hamda ustuvor ahamiyatga ega bo‘ladi. [6]. Bunda ilmiy sig‘imkorlik yuqori bo‘lgan tarmoqlar ravnaq topishini ta’kidlaydi. Biz yuqorida keltirilgan fikrlarga qo‘shilgan holda bank sohasida raqamli transformatsiyani rivojlantirish mijozlar ehtiyojlarini sinchkovlik bilan o‘rganish va mavjud imkoniyatlarni tahlil qilish orqali, mijozga yo‘naltirilgan yangi innovatsion strategiyani ishlab chiqish orqali amalga oshirilishi kerak deb hisoblaymiz. [7].

22-23.04.2024

<https://phoenixpublication.uz/>

O'zbekistonda birinchi raqamli "AnorBank" tashkil qilinib, o'z faoliyatini 2021 yildan boshladi. Fikrimizcha, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishini bank moliyaviy xizmatlaridagi rivojlantirish maqsadida quyidagi masalalarni hal etish lozim: - banklar iqtisodiyotning lokomotivi vazifasini yanada rivojlantirib ildamlangan harakatga o'tishi va moliyaviy xizmatlarni raqobat ustunliklari, ixtisoslashuvi va o'sish nuqtalarini inobatga olgan holda, shakllantirishi va amalga oshirish kerak; - banklar tijorat tashkiloti ekanligi, eng avvalo, tijoriy maqsadni ko'zlashi hamda bozor mexanizmlari asosida ish tashkil etilishi lozim.; - banklarning asosiy faoliyatidan tashqarida bo'lgan vazifalarni bajarishi kabi holatlarini oldini olish zarur. [8]. Natijada, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va unda bank masofaviy xizmatlarini yanada kengaytirish mamlakatimiz aholi turmush darajasini oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarining shaffof faoliyatini yo'lga qo'yishga hamda axborot texnologiyalardan keng foydalanish imkoniyatini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 - 2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish Strategiyasi to'g'risida"gi PF-5992-sonli farmoni. 12.05.2020. <https://lex.uz/docs/4811025>
2. Ablyazov T., Asaul V. On competitive potential of organization under conditions of new industrial base formation // SHS Web of Conferences. 2018. Vol. 44. 00003.
3. <http://www.cbu.uz/uz/payment-systems/remote-banking-services/>
4. Usmanova Nasiba Yunusovna. (2021). Classification Characteristics Of Financial Investments, Factors And Methods Of Influence On Investment Activity. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF THEORETICAL & APPLIED SCIENCES, 2(2), 90-94. Retrieved from <https://cajotas.centralasianstudies.org/index.php/CAJOTAS/article/view/77>
5. Usmanova Nasiba. (2022). Innovative Economic Development of Uzbekistan: Trends and Prospects. The Peerian Journal, 5, 175-179. Retrieved from <https://www.peerianjournal.com/index.php/tpj/article/view/123>
6. Nasiba U. Innovative Economic Development of Uzbekistan: Trends and Prospects //The Peerian Journal. – 2022. – T. 5. – C. 175-179.
7. Usmanova N. Y. DIGITAL ECONOMY IN UZBEKISTAN //Современные проблемы социально-экономических систем в условиях глобализации. – 2020. – С. 163-166.
8. Usmanova N. Y. WAYS OF DEVELOPING DIGITAL ECONOMY IN UZBEKISTAN //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 2. – C. 101-105.